

TURKISTONDA RUSLAR

Abdurauf Fitrat

Islom madaniyati tarixining oltunli, yulduzli yaprog'laridan buyuk bir qismi, shubha yo'qdirkim turklar to'g'risida yozilg'andir.

Yunondan Rumog'a[1], Ubadan Konstantaniyaga[2] ko'chib kelgandan keyin ta'sir etib, taassublari tarafidan qo'l-oyog'i bog'lanib qolg'an madaniyati bilan ulum va funun Bag'dod saltanatining egalari bo'lg'an abbosiylar tarafidan[3] turgizildi va tarbiyot ko'rdi.

Ul chog'larda yer yuzini baxtli muhabbat kabilari qoplag'an abbosiylar saltanati yolg'izg'ina siyosat negizi emas, ulum va funun tengizi ham edi.

Abbosiylar saltanati nifoq, nizo', axloqsizlik, g'urur, isrof va zulm kabi ko'b ijtimoiy kasallarga tutulib o'lg'andan keyin uning merosini yana islom siyosati bilan islom madaniyatini o'z qo'llariga olib turklar saqladilar. Abbosiylardan so'ng ulug'roq islom saltanatlarini turklar qurdilar. Abbosiylar qo'lidan chiqib yana egasiz qola boshlag'an madaniyatni turklar asradilar.

«Bizning Turkistonimiz esa mana shu buyuk turk ulusining beshigi bo'lmog'i bilan iftixor qiladi...» Yolg'iz shumi?.. Abbosiylardan so'ng islom saltanatiga qorovuyaliq qilg'an turk xoqonlarining oxiri va ulug'larida bo'lg'an Temur yanglig' turk qahramonini Turkiston yetishtirdi. Yana abbosiylardan keyin «madaniyati bashariya»ni boshlari uzra ko'targan turk olimlarining kattakonlari bo'lgan Abu Ali[4], Ulug'bek, Javhariy[5] va Forobiy kabi hikmat tiraklarini Turkiston chiqardi.

Aflotunlar chog'ida Afina, Rumo saltanatida Rumo, abbosiylar xulofotida Bag'dod qancha taraqqiy qilg'an bo'lsa Temur va Ulug'beklar zamonida Samarqand shuncha taraqqiy qilg'an edi.

Bir kishining miyasiga chog'irning qanday ta'siri bor esa, bir millatning miyasiga daxli saltanat va madaniyat ichgusining shundayin ta'siri bordir. Saltanat, boyliq va madaniyat ichgulari bizning miyamizni buzdi, bizni mast etdi, qo'limizdag'i saltanat qilichi bilan madaniyat daftarini bir yong'a qo'yib safoat cholg'ularini oldiq. Urdik, choldik, ichdik, yiqildik, yondik va shunlar uchun bir-birimiz bilan urushdik...

Mana shul chog'larda edikim: Rusiya davlati bizning o'lkalarimizni kelib bosdi. Ortuq biz Turkiston turklari Ovro'pa madaniyati tashiguchi bo'lg'an rus millatiga yo'liqq'an bo'ldik. Madaniy ruslar bilan qorishib unlarning dalolati Ovro'paning madaniy va ijtimoiy usullaridan ta'sir olmog'imiz kerak edi.

Shuni ham aytib o'taylukkim munday bir ta'sirni rus millatining avom tabaqasidan olmog'i(mi)z mumkin emas edi, chunki bizning avomimiz unlardan yuz marotaba madaniyroq edilar (hozir ham shunday). Ruslarning o'qug'an, tarbiyali kimsalaridan sosializm va qardoshliq maslakinda yurg'anlar ham imperatorlik hukumati tarafidan quvilib, qisilib turg'anlari uchun bizga biror ta'sir qo'yolmas edilar.

Qoldi: rus millatchilari, rus boylari va rus po'plari bilan shunlarning qorovuli bo'lg'an imperator hukumati. Biz turkistonlilar yolg'iz shunlarning qo'linda qoldiq. Ne ko'rgan bo'lsak shunlardan ko'rdik.

Endi ko'raylik qani: shunlar bizning taraqqiyimiz va Ovro'pa madaniyatidan ta'sir olmog'imiz yo'linda biror ish qildilar yoxud qilmoqchi bo'ldilarmi?!

Rus kapitalistlari bilan rus po'plarining sodiq va ishonchli qorovullari bo'lg'an eski Rusiya huqushli elli(k) yil orasida, Turkistondagi turk bolalarining foydalariga biror ish ko'rdimi, ko'rmoqchi bo'ldimi?

Mana shul savolga, Maltaassuf[6], «yo'q!» dan boshqa bir javobimiz yo'qdir. Yurtimiz: elli(k) yillik bir idorayi askariya ostida turdig'i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko'risholmadik, unlarning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istifoda qilolmadiq. Bizning ko'zlarimizni ochdurmaslik uchun fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man' etildi.

Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o'ldurmak tilagi bilan O'straumov kabi mutaassib po'plarining idorasida gazit[7] chiqarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni onglatmoq uchun o'z tarafimizdan ochilg'an maktablar va gazitlar bog'landi, shar'iy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g'asb etildi.

Mahkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, hatto vagon arbalarida Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo'lg'an rus va armanidan tubanda tutildi.

Buxoro va Xiva hukumatlarining doxili istiklollarig'a, milliy nomuslarig'a turli bahonalar bilan tajovuzlar qilindi. Bu ikki hukumat o'z o'lkalarida o'z hukmlarini yurutolmas bo'ldilar. Mamlakat va millat qoidalarig'a bu ikki hukumat tarafidan sira biror harakat sodir bo'lmadi, sodir bo'lg'anda ham necha qizg'in no'talari va zolimona tahqir bilan yo'llari olindi.

Elli(k) yilda(n) beri shundayin haqsizliqlar va zulmlar orasida bo'g'ulib kelgan Turkiston bukun o'z muxtoriyatini Ho'qandda[8] e'lon qildi. Ho'qandda ijtimoi' etgan[9] Turkistonning to'rtinchi qurultoyi o'z bayonnomasinda «Fedaratsa asosiga qurulg'an Rusiya jumhuriyati ila birlikda qolg'ani holda Turkiston muxtoriyati» degan so'zni yozib, Rus hukumatig'a sodiq qoldig'ini bildurdi.

Shuning ila barobar «Turkistonda aqliyat tashkil qilg'an millatlarning huquqtarining har jihatdan saqlanmog'ini ham tantanali suratda» e'lon etilib, adolat bayrog'ini ko'tardi.

Elli(k) yildan beri shuncha zulm orasinda qolg'an Turkiston bu kun o'z muxtoriyatini shuncha adolat va sadoqat bilan e'lon qilibdir. Bilmadik nechundurkim, hozirda ish boshinda adolatchi bolsheviklar muni qabul qilmay turalar..!

(«Hurriyat», 1918 yil, 63-64-sonlar)

Qayta nashri: «Sharq yulduzi», 1992, 4-son, 183-184-betlar. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi H. Boltaboev.

(Kutubxona.com' dan alinmıstır)